KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAKTABLARIDA BOSHLANG`ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

G`uzorova Chamangul Ziyadullayevna
O`zbekison Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
Qashqadaryo viloyati boshqarmasi tasarrufidagi alohida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan kar va zaif eshitadigan bolalar uchun 17- sonli ixtisoslashtirilgan
maktab –internati boshlang`ich sinf o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20023854

Annotatsiya: Mazkur maqolada kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida boshlang`ich sinflarda matematika fanini o`qitishning o`ziga xos jihatlari hamda samarali metodlari haqida yoritilgan. Unda o`quvchilarning eshitishdagi nuqsonlarini hisobga olgan holda vizual (ko`rsatmali), amaliy va interfaol foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, matematik tushunchalarni shakllantirishda ko`rgazmali nvositalar, imo-ishora tili va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Kar bolalar, zaif eshituvchi o`quvchilar, boshlang`ich ta`lim, matematika o`qitish metodikasi, interfaol metodlar, ko`rgazmali vositalar, imo-ishora tili, didaktik o`yinlar, multisensory yondashuv, axborot- kpmmunikatsiya texnologiyalari, differensial yondashuv.

Kirish: Bugungi kunda ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar barcha toifadagi o`quvchilar uchun teng va sifatli ta`lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, kar va zaif eshituvchi bolalar ta`limida samarali metodlarni qo`llash dolzarb masalalardan biridir. Boshlang`ich sinflarda matematika fanini o`qitish ushbu jarayonda muhim o`rin egallaydi. Chunki aynan shu bosqichda o`quvchilarning mantiqiy fikrlashi, hisoblash ko`nikmalari va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Eshitishida nuqsoni bor bolalar ta`limida an`anaviy metodalar bilan bir qatorda zamonaviy, innovatsion va interfaol metodlardan unumlin foydalanish ta`lim sifatini va samaradorlikni ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism:

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida matematika darslarida **imo-ishora tilidan** to`g`ri foydalanish katta ahamiyatga ega. Har bir matematik amal va tushuncha maxsus imo-ishoralar yordamida tushuntirilsa, o`quvchilar mavzuni chuqurroq egallaydi. Bu esa o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi samarali muloqotni ta`minlaydi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida boshlang`ich sinflarda matematika fanini o`rgatishda eng samarali yo`nalishlardan biri bu **vizual (ko`rgazmali)** metodlardir. Rangli kartochkalar, diagrammalar, son chiziqlari va geometrik shakllar orqali berilgan ma`lumotlar o`quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi. Ko`rish orqali qabul qilish ENB bolalarda yetakchi bo`lgani sababli, har bir mavzuni vizual materiallar bilan boyitish zarur.

Multisensor yondashuv ham samarali, muhim metodlardandir. Bu metod o`quvchilarni nafaqat ko`rish, balki harakat va amaliy faoliyat orqali ham o`rganishga undaydi. Masalan, sanash uchun turli predmetlardan foydalanish, sonlarni harakatlar bilan ifodalash bilimni mustahkamlaydi va tez o`zlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta`limda "**Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari**" (AKT) dan foydalanish ham muhim hisoblanadi. Interaktiv doskalar, animatsiyalar, mobil ilovalar orqalin darslar qiziqarli tashkil etilib, o`quvchilarning diqqatini jalb etadi. Ayniqsa vizual effektlarga

boy materiallar eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalarni o`qitish samaradorligini oshirishda juda foydalidir.

Bundan tashqari, **o`yin texnologiyalari** matematika darslarini jonlantiradi. Turli didaktik o`yinlar, musobaqalar va rolli o`yinlar orqali o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishi oshadi va ular faol ishtirok etadilar.

Differensial yondashuv har bir o`quvchuning individual xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi. O`quvchilarga ularning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish orqali har bir o`quvch o`z imkoniyatlari darajasida rivojlanadi. Bunda o`qituvchi o`quvchilarga berilayotgan topshiriqlarni murakkabligi yoki osonligini, topshiriqlar tabaqalashganligini ularga bildirishi shart emas.

Shu bilan birga, **muammoli o`qitish** metodlari o`quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar orqali bolalar tahlil qilish, solishtirish va xulosa chuqarishni o`rganadilar.

Interfaol metodlar: “Savol-javob”, Aqliy hujum”, “Guruh bilan ishlash”, “Klaster” kabi metodlar ham o`quvchilarni darsga jalb qiladi, faolligini va qiziqishlarini oshiradi.

Masalan, 4- sinfda “Kasrlar” mavzusini kar va zaif eshituvchi o`quvchilarga zamonaviy metodlar asosida o`rgatishni ko`rib chiqamiz.

1. **“Vizual kesish” (ko`rsatmali)** metodi:

- o`qituvchi doira (non, pitsa) rasmini ko`rsatadi.
- 2 bo`lakka bo`ladi. $\frac{1}{2}$ kasr yozilib tushuntiriladi.
- 4 bo`lakka bo`ladi. $\frac{1}{4}$ kasr yozib tushuntiriladi.

Har bir bo`lak rang bilan ajratiladi, imo-ishora bilan ‘butun”, “yarim”, “chorak” so`zlari tushuntiriladi. Kasrlarni to`g`ri o`qish ko`nikmasi shakllantirib boriladi: ikkidan bir, to`rtdan bir va hokazo.

Natija: o`quvchilar kasrni ko`z bilan ko`rib aniq tushunadilar.

2. **“Qo`l bilan yasash”** (multisensor metod):

O`quvchilarga qog`oz doira (yoki boshqa rasmlar) beriladi. Uni buklab 2 bo`lakka, 4 bo`lakka bo`lish aytiladi.

Natija: bevosita qo`l bilan bajarish orqali mustahkam o`rganadi, eslab qolish osonlashadi.

3. **“Top va ko`rsat”** o`yini (interfaol)

Doskada rasmlar ko`rsatiladi va savol beriladi: “Qaysi biri ikkidan bir $\frac{1}{2}$?” kabi.

O`quvchilar to`g`ri javobni ko`rsatadilar.

Natija: diqqat va tez fikrlash rivojlanadi.

4. **“Hayotiy misol” metodi**

Bunda masalan, 1 ta non (boshqa narsalar bo`lishi ham mumkin) olinadi va qismlarga (4, 6..) bo`linadi, 1 (2, 3..) qismni olinadi. Kasrni yozilishi va o`qilishi tushuntiriladi.

To`rtdan bir $\frac{1}{4}$

Oltidan uch $\frac{3}{6}$ va hokazo.

Bu metod ayniqsa, o`lchov birliklariga oid misol-masalalarni yechishda samaralidir. Masalan, 1 kg olmaning 5 dan 1 qismi $\frac{1}{5}$, 6 m matoning 3 dan 2 qismi $\frac{2}{3}$ va hokazo. O`quvchilar ko`z bilan ko`rib, qo`l bilan o`lchab, bajarib xulosa qiladilar.

Natija: matematika hayot bilan bog`lanadi.

5. “Kartochkali differensial” metod

Har bir o`quvchiga kartochkali topshiriqlar beriladi. Masalan, 4 qismdan 1 tasini $\frac{1}{4}$bo`ya va yoz, ikkidan bir qismni top $\frac{1}{2}$ kabi.

Natija: o`quvchilar bilimi mustahkamlanadi, sinaladi va kamchiliklar tuzatiladi.

6. **“Harakatli o`yin”** metodi

Bunda masalan, sinfdagi o`quvchilar 4 guruhga bo`linishi so`raladi. Agar teng bo`linish imkoni bo`lmasa bu o`yinga o`qituvchi ham qo`shiladi. Guruhlardan 1 (2, 3) qismi oldinga chiqishi aytiladi.

Natija: o`quvchilar kasrni jismoniy tushunadi.

“Kasrlar” mavzusini o`rgatishda: ko`rgazmali (rasm, model), amaliy (kesish, buklash), o`yin va harakat birgalikda qo`llansa, kar va zaif eshituvchi o`quvchilar mavzuni tez va aniq o`zlashtiradilar.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida matematika fanini o`qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish yuqori samaradorlukka erishish kafolatidir. Vizual, amaliy va interfaol yondashuvlarning uyg`unligi o`quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning mantiqiy fikrlashini va ijtimoiy moslashuvini ham rivojlantiradi. Bugungi zamonaviy pedagoglarning oldida turgan asosiy vazifa – har bir o`quvchining ehtiyojidan kelib chiqib, mos metodlarni tanlash va ularni samarali qo`llashdir. Faqat shundagina ta`lim jarayonida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida” Qonun. – Toshkent. 2020
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ta`lim sohasini rivojlantirishga oid qarorlari. – Toshkent. 2019-2025 yillar.
3. Boshlang`ich ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi. – Toshkent. Respublika ta`lim markazi. 2021
4. Nurmuhamedova L. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent. Fan va texnologiya. 2018.
5. Po`latova D. Surdopedagogika. -Toshkent. O`qituvchi. 2019
6. Shodmonov E. Maxsus ta`lim metodikasi. – Toshkent. Fan. 2020.